

JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQIDA ISHNI SUDGA QADAR YURITISH SHAKLLARI

Safarov Sarvar

Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 4 - kurs 404 - guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jinoyat ishini sudga qadar yurtishning umumiy shartlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bu shartlarning barchasi qonunda mustahkamlanib qo'yilgan. Jinoyat ishini yuritishda har bir shaxs ma'lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari , Ishni sudga qadar yuritish shakllarini turlari va ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar : *Ishni sudga qadar yuritish tushunchasi, Tergovga qadar tekshiruv , Surishtiruv va Dastlabki tergov .*

Jinoyat-protsessual faoliyat davomida jinoyat protsessining maqsadlariga erishishni ta'minlovchi bir qancha huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lib, ular jinoyat-protsessual faoliyatning amalga oshirilishi tartibi, shakli va mazmunini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli bobiga muvofiq, sudga qadar ish yurituv bosqichining tarkibiga tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini tergov qilish kiritilgan bo'lib, jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv va dastlabki tergov shaklida amalga oshirilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi "Surishtiruv institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga asosan surishtiruv institutining mohiyati tubdan o'zgartirildi, tergovga qadar tekshiruv organlari va ularning vakolatlari alohida ajratib berildi hamda surishtiruv jinoyat ishini tergov qilishning shakli ekanligi to'g'ridan - to'g'ri ko'rsatib qo'yildi. Ishni sudga qadar yuritish shakllariga tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov kiradi. Bular jinoyat-protsessual faoliyatning o'zaro turdosh usullaridir. Qonunda ular o'rtasida muayyan munosabat o'rnatilgan bo'lib, ushbu munosabatda bir qator umumiy va farqli jihatlar mavjud. Umumiy jihatlar quyidagilar kiradi: jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat umumiy maqsadlar, jinoyat alomatlar mavjud bo'lganda o'z vakolati doirasida jinoyat ishi qo'zg'atishning bir xilda majburiyigi, faoliyatning yagona jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari asosida amalga oshirilishi, tergov harakatlarini o'tkazishda yagona protsessual shakllarga rioya etish, aniqlangan faktlarning teng dalilii ahamiyatga ega ekanligi va hokazo .

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV . Tergovga qadar tekshiruv jinoyat protsessining boshlang'ich bosqichi bo'lib, unda jinoyatlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar tekshirilishi va jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atmaslik masalasi xal etiladi. Ushbu bosqichda jinoiy qilmishlar natijasida jabrlangan fuqarolarning qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishni amalga oshirish jarayoni boshlanadi. Tergovga qadar tekshiruv – serqirra tushuncha bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida jinoyat ishini qo'zg'atish, uni qo'zg'atishni rad etish masalalari hal etiladi. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv – to'plangan materiallar yuzasidan jinoiy qilmish mavjudligi yoki yo'qligini aniqlashga yo'naltirilgan tergov harakatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lib, jinoyat ishi qo'zg'atilishi haqidagi masalaning yechilishi tartibini belgilovchi protsessual me'yorlar yig'indisini tashkil qiladi. Tergovga qadar tekshiruv bosqichidagi protsessual faoliyat JPKda belgilab qo'yilgan mansabdor shaxs (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror)lar tomonidan amalga oshiriladi hamda mazkur jarayon belgilangan sharoitlarda va maxsus protsessual shakllarda yuritiladi. Jinoyat protsessining ushbu shaklida kelib tushgan ariza, xabar yoki shikoyat bo'yicha to'plangan materiallar yuzasidan keyinchalik amalga oshiriladigan harakatlarning yo'nalishini belgilovchi aniq protsessual qaror bilan yakunlanadi. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalaning yechimi – dastlabki tergovning umumiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. O'z navbatida, bu bosqichda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari, ya'ni jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi va unga nisbatan sud adolatli hukm chiqarishi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash ham amalga oshirilishini alohida ta'kidlash kerak. Bu jarayon davomida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror jinoyat ishini qo'zg'atish uchun qonunda belgilangan shartlar mavjudligini tekshiradi hamda jinoyatning oldini olish, uning sodir etilishini to'xtatish, shuningdek uning izlarini belgilangan protsessual shaklda saqlash va mustahkamlashning tezkor choralarini qabul qiladi. Shunday qilib, tergovga qadar tekshiruvda ayrim tergov harakatlari o'tkaziladi va qator protsessual hujjatlar rasmiylashtiriladi va jinoyat haqida arz qilgan shaxs (fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilot)lar dastlabki tergovni amalga oshiruvchi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror, shuningdek jamoatchilik vakillari kabi surishtiruv va dastlabki tergovning hamda jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi protsess qatnashchilarining vujudga kelishi ham mazkur jinoyat-protsessual munosabatlari jarayonida paydo bo'ladi. Ishni sudga qadar yuritishning shakllari qatorida surishtiruv va dastlabki tergovni alohida ko'rsatib o'tish zarur. Surishtiruv va dastlabki tergov dastlabki tergovning alohida vazifalarga va ish yo'nalishiga ega bo'lgan turli shakllaridir. Surishtiruv bilan dastlabki tergov o'rtasidagi farq shundan iboratki, jinoyat-protsessual qonunchilikda sudga qadar ish

yurituvning ushbu shakllarini har xil organlar amalga oshirishi nazarda tutilgan. Shuningdek, dastlabki tergov va surishtiruvni yuritish muddatlarida, dastlabki tergovni hamda jinoyat ishi bo'yicha surishtiruvni yuritayotgan shaxsning protsessual vakolatlari hajmida ham farqlar mavjud. Surishtiruv deganda jinoyat protsessida jinoyatlarni dastlabki tergov qilishning shakllaridan biri tushuniladi hamda surishtiruv organlari tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha ishni yuritishning tartibi va xususiyatlari JPKning 40-bobida 381–387-moddalarida keltirilgan. Qayd etish joizki, mamlakatimizda o'tkazilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar natijasida bugungi kunda surishtiruv organlarining vakolatlari kengaytirildi, jumladan, surishtiruvchi yarashilganligi munosabati bilan Jinoyat kodeksining 661-moddasidan nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni sudga yuborish, tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasi hamda amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnoma bilan prokurorga yuborish vakolatlariga ega bo'ldi. JPKning 38-moddasida belgilangan yangi qoidalarga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv – ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo'linmalari va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va uning joylardagi bo'linmalari surishtiruvchilari tomonidan olib boriladi. Surishtiruv JPKning 38-moddasida keltirilgan organlar va mansabdor shaxslarning qonun normasiga asosan ularning tergovga tegishliligini belgilash qoidalaridan kelib chiqqan holda qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha amalga oshiradigan protsessual faoliyatidir. Surishtiruv organlarining faoliyati Jinoyat kodeksining 15-moddasi 2–3-qismlarida ko'rsatilgan jinoyatlar bo'yicha bir oy mobaynida dalillarni to'plash va saqlash; jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash, shaxsni gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayblov dalolatnomasi tuzish va ishni sudga yuborishdan iborat ekanligi bilan belgilandi. Tergovga qadar tekshiruv o'tkazish deganda jinoyat haqidagi ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotni ro'yxatga olish hamda jinoyat ishini qo'zg'atish sababi qonuniyligini va asoslar mavjudligini aniqlash maqsadida ayrim protsessual harakatlarni bajarish, olingan yoki aniqlangan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda tegishli qaror qabul qilish jarayoni tushuniladi. JPKning 320-moddasiga muvofiq tergovga qadar tekshiruv surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ham olib borilishi mumkin. Shu munosabat bilan prokuratura organlariga kelib tushgan jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish prokuratura organlarining xodimlari tomonidan amalga oshirilishi lozim. Tergovga qadar

tekshiruvni amalga oshiruvchi organ tomonidan jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar tekshiruv qonunda ularning yuritishiga berilgan ishlardan, shuningdek, JPKning 345 va 381-moddalarida belgilangan jinoyat ishining tergovga tegishliligi qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Bundan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organga taalluqli bo'lmagan ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar belgilangan tartibda tegishliligiga ko'ra yuborilishi shart. Tergovga qadar tekshiruv bosqichining mohiyati prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning jinoyat alomatlari (tarkibi)ni aniqlaganda tegishli jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi protsessual qarorini qabul qilishi bilan bog'liq protsessual ish jarayonidan iboratdir. Zero, jinoyat alomatlari yetarli bo'lmaganda yoki jinoyat tarkibi aniqlanmaganda jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinadi. Ushbu bosqichning mohiyati huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kelib tushgan ariza va xabarlar yuzasidan tegishli protsessual qarorni qabul qilgunlariga qadar, u bo'yicha ko'rib chiqiladigan protsessual masalalarni hal etish bilan bog'liq faoliyatdir. Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasiga asosan jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hamda to'g'risida ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari JPKning 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. JPKning 329-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi. Alohida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddati quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qaroriga ko'ra prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tegishli materiallarni talab qilish va tushuntirishlar olish JPK normalari bilan tartibga solingan. Surishtiruv organlari bunday tekshiruvni amalga oshirish jarayonida belgilangan tartibda tezkor-qidiruv harakatlarini o'tkazishlari mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslarning qo'shimcha materiallarni berish haqidagi talablari barcha mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi. Diplomatik daxlsizlik huquqidan foydalanuvchi shaxslar va muassasalardan materiallarni talab qilib olish maxsus belgilangan tartibda Tashqi ishlar vazirligi orqali amalga oshiriladi. Jinoyat to'g'risidagi ariza yoki xabarning

tekshiruvini amalga oshirayotgan vakolatli mansabdor shaxs jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etish maqsadida materiallar bilan ular saqlanayotgan joyda (korxonalar, muassasa, tashkilotda) tanishib chiqishga, lozim holatlarda qo'shimcha idoraviy tekshiruvlar, taftishlar, inventarizatsiyalar o'tkazilishini talab qilishga haqlidir. JPKning 329-moddasi 1-qismiga ko'ra jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar darhol ro'yxatga olinishi hamda jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hamda to ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari JPKning 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarining to'liq va qat'iy hisobga olib borilishini ta'minlash jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani to'g'ri va zaruriy hal qilishning sharti hisoblanadi. Jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarini ro'yxatga olishdan yashirish, jinoyatlarni har qanday shakldagi hisobdan yashirish, shuningdek ularga nisbatan choralar ko'rmaslik qonuniylikni qo'pol ravishda buzish bo'lib, aybdorlarga nisbatan qattiq choralar, hatto jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan choralarni qo'llashgacha olib keladi. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida navbatchi tezkor-tergov guruhining hodisa sodir bo'lgan joyda amalga oshiriladigan ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhning hodisa sodir bo'lgan joydagi harakatlari, birinchi navbatda ish bo'yicha jinoyat belgilari va izlarini, jinoyat sodir etgan shaxslarning o'ziga xos belgilarini, guvohlarni va daliliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashga yo'naltirilgan birlamchi tezkor-tergov choralari majmuini o'zida aks ettirishi kerak. Tezkor-tergov guruhining har bir a'zosi hodisa sodir bo'lgan joyda u tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan xarakterlarni aniq bilishi muhim ahamiyatga ega. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida ekspertiza tayinlash va o'tkazish. Jinoyat-protsessual kodeksining 329 - moddasining 2-qismidako'rsatilgan jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkazilishi mumkin bo'lgan tergov harakatlaridan yana biri bu ekspertiza tayinlash va o'tkazishdir. Amaldagi protsessual qonunchilikka asosan ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi. Ekspertiza asosida olinadigan xulosalar dalil manbalari bo'lib, ulardagi faktik ma'lumotlar esa dalil sifatida tan olinadi. Ekspertiza yangi dalillarni olish va mavjud dalillarni tekshirishning mustaqil protsessual shaklidir. Protsessual harakat sifatida ekspertiza-ning o'ziga xosligi uni tayinlash, o'tkazish va protsessual rasmiylash-tirishning shakllari mavjudligi bilan ajralib turadi. Uning o'ziga xosligining yana bir jihati bu ekspertiza o'tkazishda faktik ma'lumotlar tergovchi tomonidan emas, balki tergovchining chiqargan protsessual

hujjati (qarori)ga asosan, ilm-fan, texnika, san'at yoki kasb sohasida maxsus bilimlarga ega shaxs – ekspert tomonidan olinadi. Hatto tergovchi biror soha bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan taqdirda ham uning ekspert va ish yuritish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsning vazifalarini bir vaqtning o'zida bajarishiga yo'l qo'yilmaydi va ekspertiza o'tkazilishi kerak. Ekspertiza tayinlash va o'tkazishning protsessual shakliga solinganligi ekspertlar xulosalarining qonuniyligi, asosliliigi va ilmiy jihatdan asoslantirilganligini ta'minlashga qaratilgandir. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida ushlab turish protsessual majburlov chorasini qo'llash. Jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin qo'llanilishi mumkin bo'lgan protsessual majburlov chorasi ushlab turishdir. Ushlab turish majburlov chorasini qo'llash faqat jinoyat sodir qilishda gumon qilinayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

SURISHTIRUV . JPKning 381- moddasiga muvofiq surishtiruv JPKda belgilangan hollarda prokurorlar va tergovchilar tomonidan ham olib borilishi mumkin. Bunda prokurorlar yoki tergovchilar tomonidan surishtiruv shaklida tergov o'tkazish talab etilganda, jinoyat ishi qo'zg'atish yoki jinoyat ishini ish yurituviga olish to'g'risidagi qarorlarda tergovning surishtiruv shaklida o'tkazilishi ko'rsatilishi lozim. JPKning 345-moddasiga ko'ra qonunda ko'rsatilgan ayrim toifada-gi mansabdor shaxslarning jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov prokuratura organlarining tergovchilari tomonidan olib borilishi nazarda tutilganligi bois bunday toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv prokuratura organlari tomonidan o'tkazilishi belgilangan. Surishtiruvchi jinoyat ishini qo'zg'atish va (yoki) uni o'z ish yurituviga olish to'g'risidagi qaror chiqarilishi bilan boshlanadi. Jinoyat ishlari birlashtirilayotganda ular bo'yicha ish yuritish muddati uzoqroq muddat davomida tergov qilingan jinoyat ishi bo'yicha belgilanadi. Bunda qolgan jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish muddati uzoqroq tergov qilingan ishning muddati bilan qamrab olinadi va qo'shimcha ravishda hisobga olinmaydi. Alohida ish yurituvga ajratilgan jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv muddati, agar jinoyat ishi yangi jinoyat bo'yicha yoki yangi shaxsga nisbatan ajratilayotgan bo'lsa, tegishli qaror chiqarilgan kundan e'tiboran hisoblanadi. Qolgan hollarda muddat bu jinoyat ishi qaysi jinoyat ishidan alohida ish yurituviga ajratilgan bo'lsa, o'sha jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan e'tiboran hisoblanadi. Surishtiruv jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab bir oydan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim. Surishtiruv muddati prokuror tomonidan yigirma kungacha uzaytirilishi mumkin. Surishtiruv muddatiga ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqan vaqt, surishtiruv to'xtatib turilgan vaqt, qo'shimcha surishtiruv o'tkazish

uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish surishtiruvchiga kelib tushguniga qadar o'tgan vaqt kirmaydi.

DASTLABKI TERGOV . Dastlabki tergov – jinoyatni tez va to'liq ochish, uni sodir etgan shaxslarni fosh etish va ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, jinoyatni bartaraf etish choralarini ko'rish, jinoyat sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, shuningdek jinoyat tufayli yetkazilgan zararning qoplanishini ta'minlash choralarini ko'rish maqsadlarida dastlabki tergov organlarining ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga asos bo'ladigan dalillarni to'plash, tekshirish va baholash borasidagi faoliyati. Dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi. Dastlabki tergovni amalga oshirishda tergovning borishi va tergov harakatlarining bajarilishi haqidagi barcha qarorlarni tergovchining o'zi mustaqil qabul qiladi (qonunda prokurorning sanksiyasini olish nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) hamda ularning qonuniy tarzda va o'z vaqtida o'tkazilishi uchun to'liq javobgar bo'ladi.

XULOSA

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida uning normalarini takomillashtirishga, jinoyat protsessiga jalb etiladigan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini so'zsiz ta'minlash maqsadida ilg'or xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotni implementatsiya qilishga qaratilgan sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlarini belgilab bergan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi sud-huquq tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bosqichi bo'ldi. "Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasini kengaytirish, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishning soddalashtirilgan tartibini joriy qilish, shuningdek, sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu o'zgarishlarga monand ravishda ishni sudga qadar yuritish bosqichlarida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish chora-tadbirlarini qo'llash tartibini yanada kuchaytirish kerak. Masalan, shaxs ushlangan vaqtda unga " Miranda" huquqini tushuntirish lozim. Shuningdek, Sudga qadar yuritish bosqichida "Tortishuvchanlik" prinsipini yanada kuchaytirish kerak. Chunki, Aynan ushbu tamoyil fuqarolarning huquq va erkinliklarini sudga qadar yuritish bosqichida eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.30.04.2024

- 2 . Абдумажидов Г. Справедливость как философская, этическая и правовая категория. // Методологические проблемы права. Академия МВД Республики Узбекистан. – Т.: 1995. – 46 с.
- 3 . O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi: Darslik // Sh.T.Ikramovning umumiy tahriri ostida. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 635 b.
- 4 . Jinoyat protsessi.Umumiy qism. // Z.F.Inog‘omjonovanning umumiy tahriri ostida. –Т.: Yangi asr avlodi, 2002. – 384 b.
5. Jinoyat protsessi: Darslik. Maxsus qism // Z.F.Inog‘omjonova-ning umumiy tahriri ostida. – Т.: TDYI, 2003. – 484 b.
- 6 . Saxaddinov S. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014. – 592 b.
7. Уголовный процесс / Под ред. О.И. Андреевой, А.Д. Назарова, Н.Г. Стойко, А.Г. Тузова. – Ростов на Дону: Феникс, 2015. – 446 с.
8. Ендолцева А.В. Стадии уголовного судопроизводства (уголовного процесса) – М.: МосУ МВД России, Щит-М, 2017. – 721 с.
- 9 . Лазарева В.А. Доказывание в уголовном процессе. – М.: Юрайт, 2017. – 352 с.
- 10 . Лазарева В.А. Защита прав личности в уголовном процессе / В.А. Лазарева, В.В. Иванов, А.К. Утарбаев. – М.: Юрайт, 2016. – 320 с.